

## HUQUQ KATEGORIYASINING MOHIYATI: FORMAL VA FAKTIK TENGLIK TUSHUNCHALARINING O‘ZARO NISBATI

**Ashuroxunova Iroda Tohir qizi**  
Guliston davlat universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada huquqni tushunish masalalari, xususan, huquqni tushunishdagi yondashuvlar, yuridik hamda libertar yondashuv, pozitiv huquq tarafdorlarining qarashlari, formal va faktik tenglik tushunchalarining o‘zro nisbati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** huquqni tushunish, libertar yondashuv, yusnaturalistik yondashuv, legistik yondashuv, formal tenglik, faktik tenglik, pozitiv huquq.

Ma’lumki, jamiyat kishilar o‘rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tizimidan iborat. Ushbu tizim o‘z doirasiga turfa xil munosabatlarni qamrab olgan murakkab jamlanmadir. Bunday murakkablik va turfa xillik ijtimoiy munosabatlar bilan o‘zaro ta’sirli aloqada bo‘lgan hodisalardan ham xuddi shunday mutanosiblikni talab etadi. Shunday ijtimoiy hodisalardan biri huquqdir.<sup>1</sup> Mazkur ijtimoiy hodisa - huquqning insoniyat tomonidan qanday idrok etilishi, unga qanday munosabatda bo‘linishi haqidagi fikr-mulohazalarni yuqorida belgilab olingan **birinchi masala**, ya’ni, huquq tushunchasini yoritish doirasida ko‘rib chiqamiz.

Dastlab, "huquq" tushunchasining o‘ziga yurtimiz hamda xorij olimlari tomonidan berilgan ta’riflar bilan qisqacha tanishib o‘tadigan bo‘lsak, huquqshunos olim X.T.Odilqoriyev o‘zining "Davlat va huquq nazariyasi" nomli darsligida huquqni – insoniyat uzoq tarixiy tamadduni mobaynida kashf etgan noyob ijtimoiy qadriyatlardan eng sarasi ekanligi, shuningdek, u jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o‘zining bir qator boy jihatlari va qirralari bilan namoyon bo‘lib kelayotganligini ta’kidlab, quyidagilarni keltirib o‘tadi:

- birinchidan, huquq – haqiqat, adolat mezon;
- ikkinchidan, erkinlik me’yori;
- uchinchidan, tenglik timsoli va o‘lchovi;
- to‘rtinchidan, hokimiyat va jamiyat irodasining normativ ifodasi;

<sup>1</sup> Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi (darslik). – T.: “Adolat”, 2018.

beshinchidan, qat'iy tartibot tasdig'i;  
oltinchidan, jamiyatdagi qonuniy manfaatlarni ta'minlash vositasi;  
yettinchidan, barqarorlik va xavfsizlik kafolati;  
sakkizinchidan, zo'rlik va tajovuzni cheklash vositasi (ba'zi tarixiy davrlarda ekspluatatsiyani, zo'rlikni qonunlashtirish, ta'minlash vositasi);  
to'qqizinchidan, davlat hamda jamiyat farovonligi yo'lida (ba'zan totalitar ta'qib maqsadida) majburlash chorasi;  
o'ninchidan, qonunbuzarni jazolash omili<sup>2</sup>.

Olim huquqning sirli ichki olamini, murakkab serqirra tabiatini, benazir salohiyati va imkoniyatlarini anglash, uning tub mohiyatiga yetib borish sermashaqqat ilmiy izlash, mushohada etish asosida amalga oshishi mumkin bo'lgan murakkab aqliy-tahliliy faoliyatni talab etishini ta'kidlab, huquq haqidagi hozirgacha mashhur nuqtayi nazarlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosaga keladi:

*"...huquq rasman teng va erkin subyektlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tarixan qaror topgan, shakllangan mezon, qonuniy me'yorlardan chetga chiqish davlat majburlovi vositalari bilan bartaraf etilishi mumkin bo'lgan tartibotning normativ ifodasi"*<sup>3</sup>.

Olim Sh.A.Saydullayevning ta'kidlashicha, huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi reguliyator bo'lib, uning bu xususiyati ijtimoiy munosabatlar bilan bo'ladigan muntazam aloqadorlikni ta'minlaydi. Olim, shuningdek, huquq tushunchasiga yuridik ma'noda quyidagicha ta'rif beradi:

"Huquq (yuridik ma'noda) – bu davlat tomonidan himoya qilinadigan, o'zida erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini ifodalaydigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umummajburiy xulq-atvor qoidalari yig'indisi"<sup>4</sup>.

Yuqorida ketirilgan har ikkala olimning huquq tushunchasiga bergan ta'riflaridan umumiy jihatlarini ajratib oladigan bo'lsak, **bizning fikrimizcha**, huquqning asosiy va ajralmas belgisi, xususiyati erkinlik, tenglik va adolat tushunchalarida o'z ifodasini topar ekan. Shu o'rinda, xorij olimlarining ham huquq borasida bildirgan fikr-mulohazalariga murojaat qilsak, rossiyalik olim S.S. Alekseev huquqni – qonunlarda yoki davlat tomonidan tan olinadigan boshqa manbalarda mustahkamlanadigan va huquqiy ruxsat etilgan hamda yuridik jihatdan ruxsat berilmagan, taqiqlangan xulq-atvorni belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan huquq umummajburiy normalar tizimi sifatida ta'riflaydi<sup>5</sup>. Akademik V.S. Nersesyansning e'tiroficha, «Huquq o'z mohiyatiga ko'ra real munosabatlarda tarixan obyektiv belgilangan erkinlikning

<sup>2</sup> Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi (darslik). – T.: "Adolat", 2018.

<sup>3</sup> Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi (darslik). – T.: "Adolat", 2018.

<sup>4</sup> Saydullayev Sh. A. Davlat va huquq nazariyasi (darslik). – T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2020.

<sup>5</sup> Алексеев С.С. Право: азбука – теория – философия: Опыт комплексного исследования. – М., 1999. – 58-бет.

muayyan shakli, mazkur erkinlikning me'yor, erkinlik mavjudligining namoyishi, shakllangan erkinlik», «rasman (shaklan) erkinlik prinsipi aynan huquqning o'zi bo'lib, u huquqqa xos adolatni aks ettiradi»<sup>6</sup>.

Misollardan ko'rinib turibdiki, huquqqa nisbatan berilgan ta'riflar har biri o'ziga xos yondashuvni namoyon qilmoqda. Huquqning mazmun - mohiyati turli olimlar tomonidan turlicha qarashlar orqali ifodalangan bo'lib, bu jarayon huquqni tushunish tiplarini vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Mazkur tiplarning mazmun-mohiyatini belgilab olingan **ikkinchi masala** doirasida yoritib o'tishga harakat qilamiz. Huquqshunos olimlar tomonidan huquqni tushunish ma'lum bir asoslarga ko'ra bir necha tiplarga ajratilib, ulardan eng yirigi hamda asosiylari yuridik hamda legistik yondashuvlardir. Buning tasdig'i sifatida akademik V.S. Nersesyansning quyidagi fikrlarini keltirib o'tamiz:

"...huquqiy ta'limotlar va yurisprudensiya tarixi ikki shakldagi huquqni tushunish va huquqqa bo'lgan yondashuvlarning kurashidan iborat. Huquqni bunday tushunish va yondashuvni shartli ravishda yuridik (jus – huquq so'zidan olingan, huquq va qonunni farqlashdan kelib chiqadigan) hamda legistik (Lex – qonun so'zidan olingan, huquq va qonunni aynanlashtirishdan kelib chiqadigan) shakllarga bo'lish mumkin. Bunda ularning har ikkisi yoki birining u yoki bu xususiyatlarini o'zida mujassam etgan ko'plab oraliq shakllarning mavjudligi istisno etilmaydi"<sup>7</sup>.

Huquqqa legistik yondashuv namoyandalari turli hudud hamda turli davrlarda yashab o'tgan olimlarning katta guruhini tashkil etib, bular jumlasiga ingliz olimlaridan T. Gobbs, J. Ostin, germaniyalik R. Iering, G. Kelzen, rossiyalik G.F. Shershenevichlarni kiritish mumkin. Mazkur olimlarning fikr-mulohazalariga ko'ra legistik yondashuv mazmun-mohiyatini huquq – davlat hokimiyatining mahsuli, hukmdorning buyrug'i, talabi sifatida ifodalash tashkil etadi. Shuningdek, mazkur tip vakillari vujudga kelish nuqtayi nazaridan davlat birlamchi, huquq esa ikkilamchidir deb ta'kidlaydilar hamda ayrim hollarda har qanday qonunni, jumladan adolatsiz qonunni ham huquqiy deb hisoblaydilar.

Huquqni tushunishning navbatdagi tipi bu - huquqni yuridik tushunishdir. Mazkur tip ikki asosiy yo'nalish bo'yicha rivojlangan bo'lib, ulardan biri, tabiiy huquq nazariyasi bo'lsa, ikkinchisi, akademik V.S. Nersesyans ilgari surgan huquqni libertar-yuridik (erkinlik) tushunishdir. Huquqni tushunishning mazkur tipi huquqni legistik tushunish tipidan qonun va huquq tushunchalarini farqlash asosiga qurilganligi bilan ajralib turadi.

<sup>6</sup> Нерсесянц В.С. Право и закон. – М., 1983. – 342–343-бетлар

<sup>7</sup> Нерсесянц В. С. Из истории правовых учений: два типа правопонимания // Политические и правовые учения: проблемы исследования и преподавания. – М., 1978; Шу муаллиф. Право и закон. – М., 1983.)

"...tabiiy huquq nazariyasi asoschilari tabiiy huquq va pozitiv huquqni (insonlar yaratgan) bir-biriga qarama-qarshi qo'yadilar. Ularning fikricha, tabiiy huquq abadiy, o'zgarmas, azaldan mavjud. Insonlar ularni anglash orqali o'z faoliyatlarida qo'llashlari lozim. Pozitiv huquqni esa, adashishga moyil bo'lgan, his-tuyg'uga beriluvchan insonlar yaratadi va u sun'iydir. Shuning uchun tabiiy huquq pozitiv huquqdan ustun turadi hamda pozitiv huquq tabiiy huquqqa moslashishi lozim"<sup>8</sup>. Huquqni yuridik tushunishning libertar-yuridik shakli mazmun-mohiyatini erkinlik tashkil etadi. Erkinlik insoniyatning ming yillik taraqqiyoti, siyosiy-huquqiy nazariyalar va amaliyoti natijasida shakllangandir. Erkinlik qadimgi grek siyosiy-huquqiy ta'limotlarida shakllantirilib, yangi davr Yevropasida ham huquqni falsafiy tushunishda markaziy o'rinni egallab kelgan va bu davom etmoqda. Bunda F. Volter, Sh. Monteskye, J. Lokk, I. Kant, G. Gegel, Shelling, Fixte kabi buyuk mutafakkirlar ilgari surgan g'oyalar katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Rossiyalik olim S.S. Alekseevning haqli ravishda ta'kidlab o'tganidek, aynan I. Kantning g'oyalari erkinlikni falsafiy tushuntirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan<sup>9</sup>.

Akademik V.S.Nersesyans huquqni tushunishning libertar - yuridik tipi asosida rasman tenglik prinsipi yotishini ta'kidlab, jumladan quyidagilarni e'tirof etadi:

Huquqni libertar-yuridik tushunish huquqni (ham huquqning mohiyati, ham huquqiy qonun shaklidagi huquqiy hodisa sifatida) tushunishnigina emas, balki, davlatning rasman tenglik prinsipining ifodalanishi va amal qilishining institutsional-hokimiyat shakli sifatida, yalpi ommaviy hokimiyatni tashkil etishning huquqiy shakli sifatida huquqiy tushunilishini ham o'z ichiga oladi<sup>10</sup>. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, fikr yuritishimiz lozim bo'lgan mavzu doirasi, ya'ni, huquqni tushunishning libertar nazariyasi markazida aynan **formal tenglik** tushunchasi o'rin olgan bo'lib, belgilab olingan **uchinchi masala**, ya'ni, formal tenglik tushunchasini ilmiy adabiyotlarda berilgan ta'riflar asosida tahlil qilishga o'tamiz.

V.S. Nersesyansning "Huquq falsafasi" asarida rasman (formal) tenglik tushunchasiga atroflicha izoh berilgan bo'lib, rasman tenglik prinsipining muhim zaruriy tarkibiy qismlari sifatida *teng o'lchov*, *erkinlik* va *adolat* tushunchalarini keltiradi. Jumladan, teng o'lchov tushunchasiga mazkur asarda quyidagicha ta'rif beriladi:

"... Teng o'lchov bunday tarkibiy qism sifatida rasman tenglik huquqiy prinsipining boshqa qismlarni - *erkinlik* va *adolat*ni ham taqozo etadi. Shu sababli teng o'lchov - erkinlik va adolatning teng o'lchovi.

<sup>8</sup> Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi (darslik). – T.: "Adolat", 2018.

<sup>9</sup> Алексеев С.С. Право: азбука – теория – философия: Опыт комплексного исследования. – М., 1999. – 447-бет.

<sup>10</sup> V.S.Nersesyans. Huquq falsafasi. – "Adolat" T.,2003. – 58-бет

Huquqiy tenglik - erkin va bir - birdan mustaqil bo'lgan huquq subyektlarining hamma uchun umumiy bo'lgan ko'lam, yagona norma, teng o'lchov bo'yicha tengligidir"<sup>12</sup>. Keltirilgan ushbu ta'rifdan **bizningcha**, quyidagicha xulosaga kelish mumkin: demak, ushbu o'rinda teng o'lchov barcha uchun umumiy bo'lgan huquqiy tartibga solish normasi bo'lishi bilan birga, huquq subyektlari o'rtasidagi munosabatlarning o'zaro mutanosibliigi hamda bir tekisligi hamdir.

Rasman (formal) tenglik prinsipining yana bir tarkibiy qismi "erkinlik"ni Nersesyans quyidagicha ifodalaydi:

"... Huquq rasman tenglikning ifodasi sifatida o'z xulq-atvorida, hatti-harakatida va o'zaro munosabatlarida umumiy normaga bo'ysungan, bir-biridan mustaqil bo'lgan subyektlarning ijtimoiy munosabatlari umumiy shaklidan iborat. Subyektlarning o'zaro munosabatlari huquqiy shakli doirasida bir-biridan bunday mustaqilligi va ayni paytda ularning umumiy normaga bir xilda, teng bo'ysunishi, borliqning huquqiy shakli va erkinlik ifodalanishiining mazmuni va mohiyatini belgilab beradi"<sup>13</sup>. Nersesyans ta'biri bilan aytganda rasman (formal) tenglikning yana bir, **bizning fikrimizcha**, eng asosiy hisoblangan tarkibiy qismi bu - adolat tushunchasidir. Yuqorida nomi keltirilgan asarda mazkur tushuncha mazmun-mohiyati quyidagicha ifodalanadi:

"...Huquq va qonunni farqlash jihatidan bu adolat huquq tushunchasiga kirishini, huquq belgilanishiga ko'ra adolatli ekanligini, adolat esa huquqning ichki xossasi va fazilati ekanligini, kategoriya va tavsiflar huquqdan tashqari emas, balki huquqiy ekanligini anglatadi"<sup>14</sup>

**Fikrimizcha**, ushbu ta'rifdan, adolat tushunchasi huquqning mavjud bo'lishining asosiy sharti hisoblanib barcha prinsiplar orasida alohida muhim o'rin tutishini bilib olishimiz mumkin.. Fikrimiz dalili sifatida, mazkur prinsip ko'pgina nufuzli xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarda, mamlakat ichki qonunchiligida o'z tasdig'ini topganligini keltirishimiz mumkin. 1948-yilda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi», O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi va boshqa qonunlar shular jumlasidandir.

V.S.Nersesyans o'zining "Huquq falsafasi" asarida ta'riflagan formal tenglik tushunchasiga yana bir olim V.M. Sirix mantiqiy nuqtayi nazardan quyidagicha fikr bildiradi: "...Mantiq hech qachon "tenglik" tushunchasini formal va faktik nuqtayi nazardan ikkiga ajratishni yoqlamaydi, u uchun tenglik tushunchasi faqatgina faktik ya'ni, amaldagi holatgagina xosdir..." shu fikrdan kelib chiqqan holda V.M. Sirix

<sup>12</sup> V.S.Nersesyans. Huquq falsafasi. – "Adolat" T.,2003. – 60-bet

<sup>13</sup> V.S.Nersesyans. Huquq falsafasi. – "Adolat" T.,2003. – 65-bet

<sup>14</sup> V.S.Nersesyans. Huquq falsafasi. – "Adolat" T.,2003. – 67-bet

V.S.Nersesyansning faktik tenglik irratsional bilishning yuqori bosqichida turadi deb ifodalagan mulohazasini mantiqan noto'g'ri deb hisoblaydi hamda tenglik tushunchasi biror xodisani ifodalayotganda u yoki bu belgisi bilan amalda (faktik) ham bo'lishi mumkin emasmi deb savol qo'yadi. Bu mulohazasini isbotlash uchun quyidagicha misol keltiradi: " Agar biz qarg'alar qora, bo'rilar kulrang, ayiqlar jigarrang ekanligini e'tirof etadigan bo'lsak - bu formal jihatdan tenglikni anglatyapti, lekin shu bilan bir vaqtda faktik hamdir" .

Bizningcha, yuqorida keltirilgan fikr V.S. Nersesyans aytganidek, formal, ya'ni, rasman tenglik tushunchasi bilan faktik, ya'ni, amaldagi tenglik tushunchalarini noto'g'ri talqin qilish, to'g'ri nisbatda tushunmaslik natijasida kelib chiqqan bo'lib, mulohazada xatolik mavjud deb hisoblash mumkin. Fikrimizni V.S. Nersesyansning mulohazasi bilan davom ettirsak:

"... "Amaldagi tenglik" - bu "amaldagi" "amalda bo'lmagan" (rasman) tushunchalarni aralashtirib yuborish va tenglik tushunchasining o'zidagi qarama - qarshilikdir. ... Tenglik rasmanligi tufayli aynan "amaldagi"si tartibga solishning yalpi shakli va teng o'lchovi butun "rasmiyatchilikdan tashqari" (ya'ni, amaldagi) voqelikning o'ziga xos rasman va rasmanlashgan "tili", "hisobi", "og'irligi" o'lchovi bo'lishi mumkin va amalda shunday bo'lmoqda. Rasman - huquqiy teng o'lchov bilan ham ahvol shu tahlid turibdi....".

Fikrimizcha, ushbu mulohazani shunday tushunish mumkinki, "formal tenglik" hamda "faktik tenglik" tushunchalarini bir mohiyatning turli tomonlarini ifodalovchi, ta'bir joiz bo'lsa, teng munosabatdagi asoslar emas, balki mohiyatan biri ikkinchisining o'lchovini nazarda tutuvchi tushunchalar sifatida anglash o'rinli bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, formal tenglikning to'la ta'minlanishi, faktik tenglikning ham to'liq ta'minlanishiga olib keladi yoki olib kelishi kerak degan mulohazaga kelib qolmaslik lozimligi xulosasini olishimiz mumkin. Ya'ni, jamiyatning barcha a'zolari uchun rasmiy jihatdan huquqlar tenglik asosida taqdim etilgani holda (ta'lim olish, mulkdor bo'lish va h.k), amalda (faktik) hamma ham bu imkoniyatlardan bir xilda foydalana olmaydi. Berilgan imkoniyatlardan qay darajada foydalanish bevosita, shaxsning o'ziga, individual xususiyatiga, layoqatiga, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa shu kabi omillarga bog'liqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda *xulosa* o'rnida shuni aytish mumkinki, adolat tushunchasi formal tenglik kategoriyasining ajralmas qismi bo'lib, huquqning ushbu kategoriyasi jamiyat a'zolari foydalanishi mumkin bo'lgan barcha imkoniyatlar erkinlik, tenglik asosida taqsimlanganligini, va bu taqsimot adolat mezonlariga mos kelishini ta'kidlab o'tishimiz mumkin. O'z o'rnida formal tenglikning faktik tenglikni ta'minlash borasidagi masalaga to'xtaladigan bo'lsak, pozitiv huquqda belgilab qo'yilgan huquq subyektlarining formal tengligi, ularning faktik tengligini ta'minlab

bera olmaydi yoki ta'minlab berishga majbur emas. Sababi, bu o'rinda formal tenglik tushunchasi faktik tenglikka teng munosabatdagi qism emas, balki, uning (faktik tenglik)ning o'lchovidir, xolos. Zero, huquq subyektlarining haqiqatda faktik jihatdan tengligi F.Marks g'oyalariga mos kelib, bugungi kunda har bir shaxs berilgan imkoniyatlardan o'z layoqati, iqtidori, iste'dodi, harakatiga yarasha darajada foydalana oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Saydullayev Sh. A. Davlat va huquq nazariyasi (darslik). – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020.
2. Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi (darslik). – T.: “Adolat”, 2018.
3. Алексеев С.С. Право: азбука – теория – философия: Опыт комплексного исследования. – М., 1999. – 58-bet.
4. Нерсисянц В.С. Право и закон. – М., 1983. – 342–343-betlar
5. V.S.Nersesyan. Huquq falsafasi. – “Adolat” T.,2003. – 58-bet